



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (10-iyul, 2026-yil).– 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

INGLIZ TILINI O'QITISHDA STEAM YONDASHUVING PEDAGOGIK ASOSLARI VA INTEGRATIV TEXNOLOGIYALARI

Xatamqulova Zarinabonu Ma'murjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti,

Email: Zarinamadraximova62@gmail.com

Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada STEAM metodikasi tarixi, ingliz tilini o'qitishda STEAM yondashuvining pedagogik asoslari va uning integrativ texnologiyalar orqali amalga oshirilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda STEAM yondashuvining ta'lim jarayonidagi ahamiyati hamda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish, jamoada ishlash va og'zaki-nutqiy faollikni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ingliz tili darslarida fanlararo integratsiyani ta'minlovchi zamonaviy yondashuvlar va interfaol usullarni qo'llash mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan ingliz tili darslari o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi hamda ularning amaliy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqola yakunida ingliz tilini o'qitishda STEAM yondashuvini samarali joriy etish bo'yicha o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqot globallashuv davrida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ingliz tili darslarida o'quvchilarning mustaqil izlanish hamda ijodiy yondashuvlarini tizimli rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan bo'lib, kelgusi pedagogik amaliyotlar uchun mustahkam nazariy va metodik zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: STEAM yondashuvi, ingliz tilini o'qitish, fanlararo integratsiya, mustaqil fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalari, jamoaviy faoliyat, og'zaki nutq rivoji, interfaol metodlar.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS AND INTEGRATIVE TECHNOLOGIES OF THE STEAM APPROACH IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Khatamkulova Zarinabonu Mamurjon qizi

PhD student of Andijan State Institute of Foreign Languages,

Andijan, Uzbekistan

Annotation. This article analyzes the history of the STEAM methodology, the pedagogical foundations of the STEAM approach in teaching English, and the possibilities of its implementation through integrative technologies. The study highlights the importance of the STEAM approach in the educational process, as well as its role in developing students' independent thinking, research skills, teamwork, and oral communication activity. In addition, the paper examines modern approaches and interactive methods that ensure interdisciplinary integration in English language classes. The research findings indicate that English lessons organized on the basis of the STEAM approach increase students' motivation to learn the language and strengthen their practical knowledge and skills. At the end of the article, methodological recommendations for the effective implementation of the STEAM approach in teaching English are proposed. This research is dedicated to the problem of systematically developing students' independent research and creative approaches in English classes to prepare competitive personnel in the era of globalization, creating a solid theoretical and methodical foundation for future pedagogical practices.

Keywords: STEAM approach, English language teaching, interdisciplinary integration, independent thinking, research skills, teamwork, oral communication development, interactive methods.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymif-y2026v2i13/n26>

Kirish. Ta'lim tizimining rivojlanish tarixi jamiyatning ilmiy-texnik taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir [5]. So'nggi o'n yilliklarda global miqyosda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda o'quvchilarning mustaqil izlanish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish

zarurati fanlararo integratsiyaga asoslangan yangi ta'lim yondashuvlarining shakllanishiga olib keldi. Shu jarayonda STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'lim modeli zamonaviy pedagogikada muhim o'rin egalladi [13]. STEAM yondashuvining ildizlari dastlab STEM konsepsiyasiga borib taqaladi [15], so'ngra unga "san'at" (Arts) elementi qo'shilib, ta'lim mazmuni yanada boyitildi. Zamonaviy dunyoda ingliz tilini shunchaki grammatik qoidalar majmuasi sifatida emas, balki fanlararo bilimlarni egallash va amaliy tadqiqotlar olib borish vositasi (English as a Medium of Instruction) sifatida o'qitish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. STEAM yondashuvining tarixi va evolyutsiyasi. STEAM ta'limi avval STEM modeli asosida rivojlangan bo'lib, uning shakllanish tarixi o'tgan asrning o'rtalariga borib taqaladi. R.W. Bybee ta'kidlaganidek, 1950-1960-yillarda sovuq urush davrida AQSh va Sovet Ittifoqi o'rtasidagi ilmiy-texnikaviy raqobat, ayniqsa 1957-yilda "Sputnik" sun'iy yo'ldoshining uchirilishi ta'lim tizimida tabiiy fanlar, muhandislik va matematikaga e'tiborni keskin kuchaytirdi [3]. 1980-1990-yillarga kelib, global iqtisodiyotning o'zgarishi sababli ushbu yo'nalishlarni yaxlit tizimda birlashtirish ehtiyoji tug'ildi [3].

2000-yillarda ushbu modelga san'at (Arts) elementining qo'shilishi ta'lim metodologiyasida yangi sahifa ochdi. Mazkur integratsiyalashgan yondashuvning fundamental nazariy modeli Georgette Yakman tomonidan ishlab chiqildi [15].

2010-yillardan boshlab STEAM modeli UNESCO va OECD kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan XXI asrda talab qilinadigan kreativlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni tizimli hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy drayveri sifatida e'tirof etila boshladi [10].

Pedagogik asoslar va olimlarning qarashlari. STEAM yondashuvi bir qator fundamental pedagogik va psixologik nazariyalarga tayanadi:

Jon Dyui (John Dewey) – Tajribaviy ta'lim nazariyasi: Dyui ta'limni o'quvchining hayotiy tajribasiga va real muammolarni hal qilishga qaratilgan amaliy faoliyatiga asoslash zarurligini ta'kidlagan [5].

Jan Piaje (Jean Piaget) – Konstruktivistik yondashuv: O'quvchi bilimni passiv qabul qilmaydi, balki uni atrof-muhit bilan faol muloqot jarayonida o'zi konstruksiya qiladi (shakllantiradi) [11].

Lev Vigotskiy (Lev Vygotsky) – Ijtimoiy konstruktivizm: Bilim olish guruh va jamoaviy hamkorlikda, ijtimoiy muhitda yanada samarali kechadi, bu esa STEAMdagi jamoaviy loyiha ishlarining asosidir [14].

Xovard Gardner (Howard Gardner) – Ko'p intellekt nazariyasi: Har bir o'quvchi turlicha intellektual qobiliyatga ega [6]. STEAM modeli san'at va texnologiyani birlashtirib, barcha turdagi intellekt egalari uchun imkoniyat yaratadi.

M.M. Abdukarimova va **O.E. Kolesnikova** kabi olimlarning tadqiqotlarida STEAM muhitida o'quvchilarning loyiha-tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish, darslarni integratsiyalashgan modullar asosida qurish prinsiplari metodik jihatdan asoslab berilgan [1].

Tadqiqot Metodlari. Ushbu tadqiqotda ingliz tilini o'qitishda STEAM yondashuvining samaradorligini aniqlash maqsadida L. Cohen va K. Morrison tomonidan ilgari surilgan ilmiy-pedagogik metodologiyaga tayanildi [4]. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar majmuasidan foydalanildi:

Qiyosiy-tanqidiy tahlil: STEAM va STEM yondashuvlariga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy hujjatlar qiyosiy tahlil qilindi.

Metodik modellashirish: Ingliz tili darslarida til ko'nikmalari (Language Skills) va STEAM elementlarini birlashtiruvchi integrativ dars modeli loyihalashtirildi.

Pedagogik kuzatuv va kontent-tahlil: O'quvchilarning jamoaviy loyiha ishlaridagi nutqiy faolligi va muammolarni hal qilish (problem-solving) jarayonlari kuzatildi.

Natijalar va Muhokama

Y. Lee tomonidan O'zbekistondagi ta'lim islohotlari doirasida STEAM yondashuvining joriy etilishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur tizim o'qituvchilar va o'quvchilarning innovatsion faolligini sezilarli darajada oshiradi [9]. Bizning tadqiqotimiz va nazariy tahlillarimiz natijasiga ko'ra, ingliz tili darslarida STEAM yondashuvini qo'llash til o'rganish samaradorligini an'anaviy metodlarga qaraganda bir necha barobar oshiradi.

H.D. Brownning til o'qitish prinsiplariga ko'ra, til real va kommunikativ vaziyatlarda o'rganilganda mustahkam bo'ladi [2]. STEAM aynan shunday muhitni yaratadi. Quyida ingliz tili darsida fanlararo integratsiyani ta'minlovchi amaliy dars modeli (keys) namunasini keltiramiz:

Amaliy loyiha namunasi: "Eco-Friendly Smart Home" (Ekologik aqlli uy)

Science (Fan): O'quvchilar muqobil energiya manbalari haqida ingliz tilidagi matnlarni o'qiydilar va ekologik muammolarni muhokama qiladilar.

Technology & Engineering (Texnologiya va Muhandislik): Raqamli platformalar yordamida "aqlli uy" modelining chizmasini tayyorlaydilar.

Arts (San'at): Uyning tashqi va ichki dizaynini yaratadilar, kreativ g'oyalarini vizuallashtiradilar. Mathematics (Matematika): Uyning o'lchamlari va energiya tejash samaradorligini hisoblab, ingliz tilida taqdimot (Presentation) tayyorlaydilar.

L. Johnson va hammualliflarining texnologik tendensiyalar hisobotida qayd etilganidek, multimedia va raqamli platformalarning ta'limga integratsiyalashuvi o'quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiruvchi eng asosiy omildir [7]. Bunday darslarda ingliz tili maqsad emas, balki muhandislik yoki ekologik loyihani amalga oshirish uchun amaliy muloqot vositasi vazifasini bajaradi. Natijada o'quvchilarning lug'at boyligi (akademik va texnik terminologiya) tabiiy ravishda boyiydi, nutqiy to'siqlar (language barriers) yo'qoladi.

Metodik Tavsiyalar. Ingliz tili darslarida STEAM yondashuvini samarali qo'llash uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi: Mavzu tanlash: Fanlararo bog'liqlikni va o'quvchilarning tadqiqotchilik qiziqishlarini ta'minlaydigan dolzarb global mavzularni (ekologiya, robototexnika) tanlash.

Loyiha metodikasi: Darslarni faqat grammatik mashqlarga emas, balki yakuniy mahsulot (loyiha, maket, taqdimot) yaratishga yo'naltirish. Raqamli integratsiya: Interfaol metodlar bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro ta'lim platformalaridan unumli foydalanish. Individual yondashuv: Guruh ishlarida har bir o'quvchining individual imkoniyatlari va intellekt turini hisobga olish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, STEAM yondashuvi ingliz tilini o'qitishda shunchaki yangi metod emas, balki ta'lim sifatini tubdan oshiruvchi innovatsion pedagogik texnologiyadir. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilarning nafaqat til kompetensiyasi, balki kelajakda ular uchun eng muhim hisoblangan ijodiy, tanqidiy va tadqiqotchilik fikrlash qobiliyatlari ham tizimli ravishda rivojlanadi. Darslarning amaliy va interfaol tarzda tashkil etilishi o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi. Shu bois, zamonaviy ta'lim tizimida ingliz tilini

o'qitishda STEAM texnologiyalaridan keng foydalanish o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Abdulkarimova, M. M. Основы STEAM-образования в современной школе. – Ташкент: Университет, 2020. – 256 с.
2. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2014.
3. Bybee, R. W. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. – Arlington, VA: NSTA Press, 2013.
4. Cohen, L., Manion, L., & Morrison, K. Research Methods in Education (8th ed.). – London: Routledge, 2017.
5. Dewey, J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
6. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983.
7. Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., & Freeman, A. NMC Horizon Report: 2016 Higher Education Edition. – Austin, TX: The New Media Consortium, 2016.
8. Колесникова, О. Е. STEAM-подход в образовательной практике: методические рекомендации. – Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2020.
9. Lee, Y. Examining the Impact of STEAM Education Reform on Teachers' Perceptions about STEAM in Uzbekistan. // Asia-Pacific Science Education, 7(1), 2021. – pp. 34–63.
10. OECD. The Future of Education and Skills 2030. – Paris: OECD Publishing.
11. Piaget, J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950.
12. UNESCO. Teaching and Learning: Achieving Quality for All. – Paris: UNESCO Publishing, 2016.
13. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
14. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
15. Yakman, G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. – 2008.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 13-son (iyul, 2026-yil). – 148 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 6-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.